



OLIB KELINAYOTGAN OZIQ-OVQAT TOVARLARIDAN BOJXONA BOJI UNDIRISHGA ASOSIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Shodiyev Tuxchiboy Omonovich.

*Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish
fakulteti Maxsus fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga olib kelinayotgan oziq-ovqat tovarlaridan bojxona boji undirish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida bojxona tarif siyosati, oziq-ovqat mahsulotlarining turi va kelib chiqish mamlakati, importer subyektlarining huquqiy maqomi hamda ichki bozordagi talab va taklif muvozanati kabi omillarning bojxona bojlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, bojxona to'lovlarini hisoblashda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar va xalqaro standartlar tahlil qilinib, oziq-ovqat mahsulotlari importida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va ichki ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *bojxona boji, oziq-ovqat tovarlari, import, tarif siyosati, iqtisodiy xavfsizlik, bojxona nazorati.*

Bugungi globallashuv, iqlim o'zgarishlari va geosiyosiy beqarorlik sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jahon hamjamiyatida strategik ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Aholi sonining keskin ortib borishi, qishloq xo'jaligi resurslarining cheklanganligi, oziq-ovqat narxlarining o'zgaruvchanligi, shuningdek, xalqaro savdoda yuzaga kelayotgan yangi cheklovlar va geoiqtisodiy qarama-qarshiliklar davlatlardan oziq-ovqat siyosatini izchil takomillashtirishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham bu global jarayonlardan chetda emas. Mamlakatda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini sifatli, arzon va barqaror tarzda ta'minlash, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash,



importga qaramlikni kamaytirish va narxlar barqarorligini ta'minlash borasida qator muhim iqtisodiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona-tarif siyosatini takomillashtirish, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan import bojxona boji stavkalarini maqbullashtirish orqali milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish zaruriyati ortib bormoqda.

1. Dastlabki bosqich (1990-yillar):

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, uning bojxona tizimi yangi iqtisodiy realizatsiyalarga moslashtirilgan. Bojxona boji undirishda ko'plab muammolar bo'lib, ularning asosiylari:

- Tarixiy jihatdan avvalgi Sovet Ittifoqi davridan qolgan tizim.
- Oziq-ovqat tovarlariga yuqori bojxona stavkalari qo'llanishi.
- Tovarlar va mahsulotlar xavfsizligi nazoratining yo'qligi.

2. Modernizatsiya bosqichi (2000-2010-yillar):

Bu davrda O'zbekistonning bojxona tizimi global savdo tashkilotlari (masalan, WTO) qoidalariga moslashtirildi. Rivojlanishning asosiy xususiyatlari:

- Bojxona to'lovlari stavkalari bosqichma-bosqich kamaytirildi.
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida yangi normativ hujjatlar

va tekshiruv tizimlari yaratildi.

Import boji undirish uchun raqamli tizimlar va avtomatlashtirilgan nazorat joriy etildi.

3. Hozirgi bosqich (2010-yillar va hozirgi kungacha):

- Bojxona tizimi modernizatsiyasi davom etmoqda va O'zbekistonda import qilinadigan oziq-ovqat tovarlariga bojxona bojini undirish yanada raqamlashtirilgan. Elektron deklaratsiyalar, yangi nazorat usullari va bojxona xizmati xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

- Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat organlari o'rtasida hamkorlik kuchaytirilgan. Davlat bojxona qo'mitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi kabi tashkilotlar o'rtasida tezkor axborot almashish tizimlari joriy etilgan.



- O'zbekiston, shuningdek, xalqaro savdo shartnomalarida yangi standartlarga rioya qilishni davom ettirmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan import bojxona stavkasi

№	TIF TN kodi	Joriy stavka (%)	№	TIF TN kodi	Joriy stavka (%)
1.	0203, 0208, 0209	10	16.	1513	5, lekin 0,10 dollar/kgdan kam bo'lmagan
2.	0403	20, lekin 0,30 dollar/kgdan kam bo'lmagan	17.	1602	15
3.	0406	15, lekin 0,50 dollar/kgdan kam bo'lmagan	18.	1604	15
4.	0408	10	19.	1703	10
5.	0703*	20	20.	1704	30, lekin 0,35 dollar/kgdan kam bo'lmagan
6.	0705*	20	21.	1806	30, lekin 0,35 dollar/kgdan kam bo'lmagan
7.	0713	20	22.	1902	15, lekin 0,10 dollar/kgdan kam bo'lmagan
8.	0804	10, lekin 0,20 dollar/kgdan kam bo'lmagan	23.	1905	20, lekin 0,30 dollar/kgdan kam bo'lmagan
9.	0808	20, lekin 0,20 dollar/kgdan kam bo'lmagan	24.	2004	20



10.	0810	20, lekin 0,20 dollar/kgdan kam bo'lmagan	25.	2005	20
11.	1102	10	26.	2007	20, lekin 0,60 dollar/kgdan kam bo'lmagan
12.	1103	10	27.	2008	20
13.	1105	10	29.	2103	20
14.	1106	10	30.	2104	30, lekin 1,0 dollar/kgdan kam bo'lmagan
15.	1108	5	16.	1513	5, lekin 0,10 dollar/kgdan kam bo'lmagan

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari importining hajmi izchil ortib bormoqda. Nazariy jihatdan, import hajmining ortishi bilan bog'liq ravishda bojxona to'lovlari, xususan, import bojining umumiy hajmi ham mutanosib ravishda oshishi kutilgan edi. Biroq mavjud statistik ma'lumotlar ushbu holat amalda to'liq tasdiqlanmayotganini ko'rsatmoqda. Ya'ni, import hajmining o'sishiga qaramay, bojxona organlari tomonidan undirilgan import bojlarining o'sish sur'ati kutilgan darajada emas. (1-jadval)

1-jadval¹

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori (mln tonnada)	O'sish surati	Undirilgan to'lov (mlrd so'mda)	O'sish surati	Berilgan imtiyozlar (mlrd so'mda)	Foiz
2020-yil	5 338,6		3 679,2		1 335,6	36,3

¹ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



2021-yil	5 779,4	8,3 ↑	4 424,3	20 ↓	3 011,6	68,1
2022-yil	6 411,6	20,1 ↑	5 006,9	13,1 ↓	6 454,7	128,9
2023-yil	7 742,3	45,0 ↑	6 334,1	26,5 ↓	6 146,3	97,0
2024-yil	7 465,1	39,8 ↑	6 832,8	7,8 ↓	9 309,1	136,2

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlarining importi hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan undiriladigan bojxona to'lovlari summasiga tasir ko'rsatuvchi bir qancha muommolar (omillar) sabab bo'lmoqda.

Ular quyidagilardan iborat.

So'nggi yillarda biologik faol qo'shimchalar (BFQ)ga nisbatan imtiyozli yondashuv kuzatilgan bo'lib, ular ko'pincha dori vositalari sifatida talqin qilinib kelingan. Holbuki, BFQ farmakologik jihatdan dori vositasi sifatida emas, balki organizmning fiziologik funksiyalarini qo'llab-quvvatlash, metabolik jarayonlarni faollashtirish, immunitetni mustahkamlash va umuman salomatlikni yaxshilash maqsadida iste'mol qilinadigan mahsulotlar toifasiga kiradi. Ya'ni, ularning asosiy vazifasi davolash emas, balki profilaktik va qo'llab-quvvatlovchi funktsiyani bajarishdan iborat.

Amaldagi tasniflash amaliyotiga ko'ra, BFQ asosan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN)ning 2106 tovar pozitsiyasida tasniflanadi. Bunday tasnif TIF TNning rasmiy izohlari, Jahon bojxona tashkilotining tavsiyalari hamda 2014-yil 3-dekabrdagi Kengash qaroriga tayangan holda asoslantirilgan. Shunga muvofiq, 2106 tovar pozitsiyasida tasniflanadigan BFQlar import qilinayotganda bojxona imtiyozlariga aslida ega emas va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3818-sonli qaroriga binoan ularga nisbatan 30 foiz miqdorida bojxona boji qo'llaniladi.

Shu bilan birga, **2014-yil 3-dekabrdagi Kengash qarorida ayrim BFQlar — jumladan, davlat reestriga kiritilgan multivitamin-mineral komplekslar**



hamda **ayrim vitaminlar** — 2106 tovar pozitsiyasidan farqli o'laroq, **dori vositalari toifasiga tegishli bo'lgan 3004 tovar pozitsiyasida tasniflanishi mumkinligi** belgilab qo'yilgan. Bunday tasnif sog'liqni saqlash vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, "O'zstandart" agentligi va "O'zbekspertiza" AJ tomonidan berilgan ekspert xulosalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda davlat reestrda **11 200 dan** ortiq nomdagi dori vositalari qayd etilgan bo'lib, ularning qariyb **1000 dan ortig'i yoki 9 foizini** biologik faol qo'shimchalar (BFQ) tashkil etadi (muallif hisob-kitoblariga ko'ra)². Ushbu raqamlar mamlakat farmatsevtika bozorida BFQlarning tutgan o'rni ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

E'tiborga molik jihat shundaki, BFQlarning 3004 tovar pozitsiyasi doirasida tasniflanishi uchun ular majburiy ravishda davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi talab etiladi. Bu esa o'z navbatida, tariflashtirishda muayyan farqlarga, amaliy tafovutlarga va tartibga solishdagi bir qator murakkabliklarga olib kelmoqda.

Shu sababli, tovarlarni identifikatsiya va tasniflash tizimini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda Jahon bojxona tashkilotining Tovarlarini tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizimi (HS) talablari asosida yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, amaldagi normativ hujjatlarga ko'ra, BFQlar 2106 tovar pozitsiyasi doirasida **30 foizlik** import bojxona boji stavkasi asosida tartibga solinmoqda. Bunday yuqori stavka ushbu mahsulotlarning qonuniy aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kontrabanda va yashirin iqtisodiyotini rag'batlantiradi. Shu bois, xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda, BFQlarga nisbatan **10–15 foiz oralig'idagi differensiallashtirilgan va maqbul import bojxona boji stavkasini** joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlarda 2106 tovar pozitsiyasi bo'yicha BFQlarga nisbatan amalda bo'lgan import bojxona boji stavkalari keltirilgan: (2-jadval)

² <https://files.uzpharm-control.uz/>



2-jadval

Davlat	Import bojxona boji stavkasi (%)	Davlat	Import bojxona boji stavkasi (%)
Rossiya	5%	Tojikiston	15%
Qirg'iziston	5%	Ozarbayjon	15%
Qozog'iston	5%	Moldova	15%
Eron	5%	Janubiy Koreya	8%
Ukraina	4%	Yaponiya	13%

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, **2024-yil davomida 1270 ta bojxona huquqbuzarlik holati** aniqlangan bo'lib, ularning **400 tasi yoki 31,5 foizi** aynan BFQlar bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu holatlarning asosiy qismini tovarlarni bojxona organlariga deklaratsiyalamasdan olib kirish tashkil qilgan. Buning sabablaridan biri sifatida reestrda qayd etilmagan BFQlarni bojxona to'lovlaridan qochish maqsadida noqonuniy tarzda olib kirish holatlari keltirilmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar O'zbekistonda BFQlar importi va ishlab chiqarilishini tartibga solish bo'yicha islohotlarni jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, amaldagi 30 foizlik bojxona stavkasi boshqa mamlakatlar bilan solishtirilganda ancha yuqori bo'lib, mavjud tarif siyosatini qayta ko'rib chiqish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati dolzarbdir.

Yana bir dolzarb muammolardan biri bu — tarkibida genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining mamlakatimizga deyarli cheklovlarsiz kirib kelishidir. Ayni paytda global miqyosda GMO mahsulotlari bo'yicha ilmiy qarashlar turlicha bo'lib, ayrim olimlar ularning inson salomatligiga salbiy ta'siri hali to'liq isbotlanmaganini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotlar GMO mahsulotlarining qisqa muddatli iste'moli salomatlikka bevosita zarar yetkazmasligini ko'rsatmoqda. Biroq genetika sohasi mutaxassislarining fikriga ko'ra, genetik o'zgarishlar ta'sirining to'liq namoyon bo'lishi ko'pincha kamida ikki-uch avlod o'tgach yuzaga chiqadi. Bu esa uzoq muddatli xavf-xatarlarni baholashni sezilarli darajada murakkablashtiradi.



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, GMO mahsulotlarining potentsial xavfini inkor etmagan holda, ularning nazoratsiz kirib kelishiga qarshi ma'lum iqtisodiy vositalarni joriy etish zarurati tug'iladi. Ana shunday vositalardan biri sifatida GMO tarkibli mahsulotlarga nisbatan aksiz solig'ini qo'llash taklif etiladi. Bunday soliq mexanizmi, bir tomondan, iste'molchilarni sog'lom va tabiiy mahsulotlarni tanlashga rag'batlantiradi, ikkinchi tomondan esa, budjetga qo'shimcha tushumlarni ta'minlab, ilmiy tadqiqotlar va monitoring tizimlarini moliyalashtirish uchun manba yaratadi.

Mamlakatimizda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag'batlantirish, tadbirkorlikni va sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish va rag'batlantirish hamda ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan soliqqa tortish va bojxona-tarif tizimini tartibga solish samarali tizimini shakllantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 27-iyun "Soliq va bojxona imtiyozlari berishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-son Farmoni qabul qilindi. Unda, mamlakatimizning investisiyaviy muhitini yanada yaxshilash, adolatli raqobat tamoyillarini joriy etishni ta'minlash hamda soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish amaliyotini tartibga solish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga aholining ortib borayotgan talabini to'liq qondirish, narxlar oshib ketishi va aholi real daromadlari pasayishining oldini olish maqsadida ayrim mahsulotlar import bojxona boji va qo'shilgan qiymat so'lig'idan ozod etildi. O'simlik yog'i, kungaboqar va zig'ir urug'i, sut, qatiq, qaymoq, yogurt, pishloq va tvoroglar shuningdek, dukkakli sabzavotlar, mevalar, qandolat mahsulotlari, go'sht (mol, qo'y, tovuq), tirik hayvonlar (qoramol va parranda) va ularni so'yishdan olinadigan mahsulotlari, kartoshka hamda muzlatilgan baliq kabi mahsulotlar import bojxona bojidan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda:



O'zbekiston Respublikasi bilan birga erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqini tashkil qilgan yoxud shunday zona yoki ittifoq tuzish maqsadini ko'zlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan O'zbekiston Respublikasi milliy preferensiya tizimidan foydalanuvchi, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan boj to'lashdan ozod qilish, boj stavkalarini kamaytirish yoki preferensial tartibda tovar olib kirishga (olib chiqishga) tarif kvotalari belgilash kabi preferensiyalar yo'l qo'yiladi.

Bojxona kodeksning 297-moddasiga ko'ra Bojxona kodeksiga, boshqa qonunlarga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan yuridik va jismoniy shaxslarga tarif imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va bojxona yig'imlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar, shuningdek tarif preferensiyalari berilishi mumkin.

Xususan, mazkur yo'nalishlardan biri O'zbekiston Respublikasi o'zaro kelishuv imzolagan davlatlarda ishlab chiqilayotgan tovarlarga nisbatan ikki tomonlama preferensiyalarning qo'llanilishidir. Tarif preferensiyalari tovarning kelib chiqish mamlakatini tasdiqlovchi sertifikatini asosida taqdim etiladi.

Bojxona to'lovlari bo'yicha taqdim qilingan imtiyozlar to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm)

Qonun hujjatlar	Qo'llanilgan imtiyoz summasi	Import boji	Aksiz solig'i	QQS	Bojxona yig'implari
Jami	56 553,4	23 162,4	124,0	33240,8	26,3
Xalqaro shartnomalar	6 081,0	5 325,1	0,0	755,8	0,1
O'zbekiston Respublikasi qonunlari va kodekslari	28 341,6	1 563,0	13,2	26739,4	25,9
Prezident farmonlari	3 075,2	2 279,3	0,2	795,7	0,0
Prezident qarorlari	12 765,3	9 334,4	19,2	3 411,8	0,0
Prezident farmoyishlari	121,9	90,3	14,5	17,2	0,0



Vazirlar Mahkamasi qarorlari	5 690,8	4 337,2	77,0	1 276,6	0,0
Vazirlar Mahkamasi farmoyishlari	477,5	233,0	0,0	244,3	0,3

2022-yil 31-mayda qabul qilingan “Iste’mol bozorida narxlar barqarorligini ta’minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta’sirchanligini oshirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 145-sonli Prezident Farmoniga ko‘ra savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko‘p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojining ikki baravar stavkasi qo‘llanilmasligi hamda 2026-yil 1-yanvarga qadar import bojxona bojining nol stavkalari belgilanadigan tovarlar ro‘yxati keltirib o‘tildi.

2023-yil 23-martda qabul qilingan “Iste’mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 41-son Prezident Farmoniga binoan 2026-yil 1-yanvarga qadar quyidagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan bojxona boji stavkasi 0 % etib belgilandi.

Ular quyidagilar:

PF-145ga asosan imtiyoz berilgan tovarlar		PF-41ga asosan imtiyoz berilgan tovarlar	
T/r	TIF TN kod	T/r	TIF TN kod
1.	0206	1.	0203, 0208, 0209
2.	0301 — 0303	2.	0403
3.	0304	3.	0406
4.	0305	4.	0408
5.	0402	5.	0703*
6.	0405	6.	0705*
7.	0407	7.	0713
8.	0803	8.	0804
9.	0805 (0805 50 100 0 dan tashqari)	9.	0808
10.	0901	10.	0810



11.	0902 10 000 1, 0902 30 000 1	11.	1102
12.	0902 10 000 9, 0902 30 000 9	12.	1103
13.	1507	13.	1105
14.	1508	14.	1106
15.	1511	15.	1108
16.	1514	16.	1513
17.	1516	17.	1602
18.	1517	18.	1604
19.	1901	19.	1703
20.	1903 00 000 0	20.	1704
21.	1904	21.	1806
22.	2102 10 310 0, 2102 10 390 0	22.	1902
23.	1101 00	23.	1905
		24.	2007
		25.	2008
		26.	2101
		27.	2103
		38.	2104
		29.	2201

Hozirgi davrda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida bir qator oziq-ovqat tovarlariga import bojxona bojidan imtiyozlar taqdim etilmoqda. Xususan, yuqorida keltirilgan 54 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha bojxona to'lovlaridan ozod etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Mazkur imtiyozli tartib, albatta, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish, bozorni sun'iy taqchillikdan saqlash, raqobat muhitini kuchaytirish hamda aholi daromadlarining oziq-ovqat xarajatlariga nisbatan sarf koeffitsiyentini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur preferensiyalar orqali oziq-ovqat bozori ijtimoiy himoya va narx



nazoratiga oid ustuvor yoʻnalishlar bilan uygʻunlashtirilgan holda tartibga solinmoqda.

Biroq, oziq-ovqat importiga nisbatan keng koʻlamda imtiyozlar taqdim etilishi, ayniqsa, erkin savdo rejimi doirasida bojxona toʻlovlaridan ozod etilgan mahsulotlar ulushining haddan ziyod yuqori boʻlishi, muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, MDH doirasida va boshqa ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimlari asosida tuzilgan shartnomalarga binoan, ushbu davlatlardan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan import bojxona boji qoʻllanilmaydi. 2024-yil maʼlumotlariga koʻra, mamlakatimiz umumiy oziq-ovqat importining 81 foizini tashkil etuvchi 6 041,3 ming tonna mahsulotni yuqorida qayd etilgan 10 ta asosiy hamkor davlatlardan import qilgan. Bu esa amalda import boji undirilishi kerak boʻlgan mahsulotlarning katta qismiga bojxona toʻlovlari qoʻllanilmasligini anglatadi.

Buning amaliy natijalari ham 2024-yilda aks etgan boʻlib, ushbu yilgi statistika maʼlumotlariga koʻra **3,92 mlrd dollarga** teng oziq-ovqat mahsulotlari (shu jumladan bugʻdoy) import qilingan boʻlib, 2023-yilga nisbatan **2 % yoki 67 mln dollarga kamaydi (2023-yilda 3,98 mlrd doll.)**. Ushbu Oziq-ovqat mahsulotlari asosan Qozogʻiston (1282541 tn.), Rossiya (837213,2 tn), Braziliya (362566,4 tn), Belarus (73010,26 tn), Xitoy (191133,6 tn), Hindiston (47453,9 tn) davlatlaridan import qilinganligi bois, jami oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb **40% (qiymati boʻyicha 75% ni) tashkil qiladi.**³ (3-jadval)

3-jadval

Davlatlar	Import miqdori (mln \$)	Jami nisbatan importga ulushi (foizda)	Import bojxona boji stavkasi
Qozogʻiston	1300	33,2	0 stavka
Rossiya	911	23,2	0 stavka
Braziliya	287	7,3	1 baravar*

³ “Oziq-ovqat tovarlari importi hamda eksporti tahlili hamda xalqaro integratsiya jarayonlarida tariff hamda notarif jihatdan tartibga solishning ahamiyati”-maqola; Mahmudov Aminjon Azimovich



Belarus	206	5,3	0 stavka
Xitoy	162	4,1	1 baravar*
Hindiston	135	3,4	1 baravar*

*- Import bojxona boji 1 baravar qo'llanilishiga qaramay, asosiy import mahsulotlari qatorida yuqorida aytib o'tilgan 54 ta imtiyoz tovarlariga kiritilgan oziq-ovqat mahsulotlari ham mavjud.

4-jadval

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori (tonnada)	Undirilgan import bojxona boji (mln so'mda)	Berilgan imtiyozlar (mln so'mda)	Imtiyozning foizdagi ulushi
2020-yil	5338605,0	3679208,0	1335577,0	26,6
2021-yil	5779407,2	4424344,6	3011584,7	40,5
2022-yil	6411624,8	5006895,9	6454719,2	56,3
2023-yil	7742300,4	6334102,8	6146290,0	49,2
2024-yil	7465096,0	6832828,8	9309091,5	57,7

Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan bojxona-imtiyoz siyosati izchil ravishda amalga oshirib kelmoqda. Xususan, so'nggi besh yillik tahlillar shuni ko'rsatadiki, har yili o'rtacha hisobda **46 foiz darajasida bojxona imtiyozlari va preferensiyalar qo'llanilgan**. 2024-yil yakunlariga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich **57,7 foizgacha oshgan** bo'lib, bu bojxona siyosatining liberallasuvi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy ifodasidir. (4-jadval)

Biroq, qo'llanilayotgan barcha imtiyozlar dolzarbligi jihatidan o'z kutilgan natijasini ko'rsatmayapti. Aksincha, ayrim oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan imtiyozlarning qo'llanilishi nafaqat ichki ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki ularning samarasizligi tufayli aholi salomatligiga ham zarar yetkazmoqda.



Xulosa

Yuqoridagi tahlillar natijasida aniqlandiki, O‘zbekiston Respublikasiga olib kelinayotgan oziq-ovqat tovarlaridan bojxona boji undirish jarayoni ko‘p omilli iqtisodiy va tashkiliy jarayon bo‘lib, unga bir qator ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, bojxona tarif siyosatidagi o‘zgarishlar, xalqaro savdo munosabatlarining kengayishi, oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozoridagi narx dinamikasi, importyor korxonalarning huquqiy maqomi hamda raqamli bojxona tizimining samaradorligi ushbu jarayonga bevosita ta’sir etmoqda.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bojxona tizimini raqamlashtirish, “Yagona oyna” axborot tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bojxona bojlari undirish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, import hajmining ortishi har doim ham bojxona bojlari tushumida mutanosib o‘sishga olib kelmayapti. Bu holat ayrim oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha imtiyozli tariflar, soliq va bojxona preferensiyalarining mavjudligi, shuningdek, kontrabanda va noqonuniy savdo holatlari bilan izohlanishi mumkin.

Shu munosabat bilan, kelgusida oziq-ovqat mahsulotlari importi bo‘yicha bojxona bojlarini undirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

oziq-ovqat tovarlari importida xavfni boshqarish tizimini takomillashtirish;
bojxona tarif siyosatini milliy oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish;

raqamli tahlil va monitoring tizimlarini keng joriy etish orqali to‘lov intizomini kuchaytirish;

imtiyozlar va preferensiyalar tizimini bozor sharoiti va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlaridan bojxona boji undirish siyosati mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, tashqi savdo muvozanati va aholining oziq-ovqat ta’minoti barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 26-apreldagi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, №221-I.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 30-avgustdagi “Oziq-ovqat xavfsizligi va sifati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 26-maydagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi 77-II-son Qonuni.
4. Spanov M. Ekonomicheskaya bezopasnost: suщnost, kriterii, formy. // Tranzitnaya ekonomika, 1998, №4. S.42.
5. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘llari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 11-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Parlament majlisidagi nutq: “Parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish davri”, 2024-yil 20-noyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/7716>
7. Serova Ye.V. K voprosu o prodovolstvennoy bezopasnosti. – <http://www.iet.ru/>.
8. Balabanov V.S., Borisenko Ye.N. Prodovolstvennaya bezopasnost: mejdunarodnye i vnutrenniye aspekty. – M.: Ekonomika, 2002. – S. 22.
9. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. — T.: O‘zR Fanlar Akademiyasi asosiy kutubxonasi, 2016. – B. 50.
10. T.Pardayev, A.Shadmankulov. Bojxona tariflari va to‘lovlari. Darslik. T.: Tafakkur qanoti, 2017.